

ISSN: 2181-4058

DOI Journal 10.56017/2181-4058

JORAI

Journal of


RESEARCH

and

INNOVATIONS

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР | ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ

Volume I, Issue 5



IMFAKTOR
PAGES

MAY | 2023

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

1-ЖИЛД, 5-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-1, НОМЕР-5

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-1, ISSUE-5

ТОШКЕНТ - 2023

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

№ 5 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4058-2023-5>

Бош муҳаррир:

Салимов А. – архитектура фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Кадиров К. – филология фанлари номзоди, доцент

Таҳририят аъзолари:

Омонов Қ. – филология фанлари доктори, профессор
Муҳибова У. – филология фанлари доктори, профессор
Каримов Б. – филология фанлари доктори, профессор
Рашидов Т. – санъатшунослик фанлари номзоди, доцент
Мухамедова Ф. – санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори
Тешабоев Ж. – санъатшунослик фанлари доктори, профессор
Эгамбердиев И. – техника фанлари доктори, профессор
Ташманов Е. – техника фанлари доктори, профессор
Салихова О. – техника фанлари номзоди, доценти
Закиров Х. – қишлоқ хўжалиги фанлари номзоди, профессор
Гулмуродов Р. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
Жумамуратов А. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
Камолов Б. – география фанлари доктори, профессор
Миракмалов М. – география фанлари номзоди, доцент
Тожиева З. – география фанлари номзоди, доцент
Юсупова М. – архитектура фанлари доктори, профессор
Аскарлов Ш. – архитектура фанлари доктори, профессор
Назарова Д. – архитектура фанлари бўйича фалсафа доктори

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

Техника фанлари

DADAJONOV Muxammadqodir Abduraxmon o'g'li
Andijon davlat pedagogika instituti
magistranti

MUYDINOVA Madina Alisherovna
Andijon davlat pedagogika instituti
dotsent
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7945129>

INFORMATIKADAN AMALIY MASHG'ULOTLAR METODIK TIZIMINI MAXSUS TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH METODIKASI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada informatika fanining amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va maxsus usul va metodlar yordamida o'rgatish. Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda amaliy darslarni tashkil etishdagi kamchilik va yutuqlari yoritib o'tildi.

Kalit so'zlar: informatika, axborot texnologiyalari, amaliy mashg'ulotlar, globallasuv davri, pedagogik amaliyot, dasturiy ta'minot.

ДАДАЖОНОВ Мухаммедкадир Абдурахман оглы
Андижанский государственный педагогический институт
магистр

МУЙДИНОВА Мадина Алишеровна
Андижанский государственный педагогический институт
доцент

ПРАКТИЧЕСКИЕ ЗАНЯТИЯ ПО ИНФОРМАТИКЕ МЕТОДИЧЕСКИЕ СИСТЕМЫ НА ОСНОВЕ СПЕЦИАЛЬНОЙ ТЕХНОЛОГИИ МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ

АННОТАЦИЯ

Три статьи о разработке практических занятий по информатике и обучении с помощью специальных методов и методов. Выделены недостатки и успехи в организации практического занятия без управления информационными технологиями.

Ключевые слова: информатика, информационные технологии, производственная практика, эпоха глобализации, педагогическая практика, программное обеспечение.

DADAJANOV Mukhammadkadir Abdurakhman son
Andijan State Pedagogical Institute
master

MUYDINOVA Madina Alisherovna
Andijan State Pedagogical Institute
associate professor

PRACTICAL TRAINING IN INFORMATICS METHODOLOGICAL SYSTEM BASED ON SPECIAL TECHNOLOGIES ORGANIZATION METHODOLOGY

ANNOTATION

Three articles on the development of practical training in computer science and teaching with the help of special methods and methods. Shortcomings and successes in organizing a practical lesson without information technology management were highlighted.

Key words: informatics, information technologies, practical training, era of globalization, pedagogical practice, software.

Informatikadan amaliy mashg'ulotlar metodik tizimini tashkil etish, bugungi kunda juda muhimdir. Bu, talabalarga informatika sohasidagi bilim va ko'nikmalarini o'rganishda muhim bir qadamdir. Bu uchun, maxsus texnologiyalar asosida tashkil etish metodikalari keng tarqalganligi va o'qituvchilar o'rtasida hamkorlikni talab qiladi.

Maxsus texnologiyalar asosida tashkil etish metodikalari, Internetda mavjud bo'lgan onlayn resurslardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu resurslar o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini yanada kengaytirib borishi mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, bu metodikalar talabalarning bilimlarni amalda qo'llash imkoniyatini ham yanada kengaytirib beradi. Boshqa amaliy mashg'ulotlar metodikasi bilan solishtirganda, maxsus texnologiyalar asosida tashkil etish metodikalari talabalarning o'z-o'zini sinovdan o'tkazib ko'rish uchun xavfsiz muhit yaratadi.

Zamonaviy ta'limning dolzarb muammosi - informatikadan amaliy mashg'ulotlarning metodik tizimini maxsus texnologiyalar asosida tashkil etishdir. Informatika fanining ta'limdagi o'rni yuqori bo'lganli sababli uni nazariy holda o'rganish umuman olganda mumkin emas, ammo bu nazariyalarni amaliy holga keltirish uchun va axborot texnologiyalaridan foydalanishlari faol bo'lishi globallashtirish davrida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalangan holda ish jarayonlarini tashkil etishlari talab etiladi. Ta'lim berayotgan o'qiyuvchidan tortib o'quvchigacha internet ma'lumotlaridan va kompyuter vositalaridan foydalanishlari va dars xonalarining ham aynan, zamon talabiga mos holda jihozlangan bo'lishi talab etiladi.

O'quvchilar internetda o'zlarining qiziqishlariga mos keladigan materiallarni izlashadi va bu ularning yaratuvchi ko'nikmalarni yanada rivojlantirishi uchun ham ayni yuqorida keltirilgan talablar va internet vositalari brauzerlari bilan to'liq ta'minlangan bo'lish va internet tarmoqlariga ulangan o'quv xonalari bo'lishi kerak bo'ladi. Shuningdek, bu usul va holatlarni barchasi yosh talabalarning qiziqishlarini tortib chiqishga imkon beradi [1].

Bundan tashqari, maxsus texnologiyalar asosida tashkil etish metodikalari, o'quvchilar uchun ishlab chiqilgan onlayn dasturlar va ilovalar orqali ham amaliy mashg'ulotlar tashkil etish imkonini beradi. Bu usulda talabalar informatika sohasidagi bilim va ko'nikmalarini yanada samarali o'rganib, amalda qo'llashga tayyorlanadilar. Natijada, maxsus texnologiyalar asosida tashkil etish metodikalari informatika sohasidagi bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llashni osonlashtiradi.

Bu usul o'quvchilarning motivatsiyasini yanada kengaytirib boradi va ularning ma'lumotlarini mustahkamlab boradi. Shuningdek, bu usul talabalarning yaratuvchi hamkorlikni rivojlantirishigada yordam beradi. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablar ortib borayotgan sharoitda o'quvchilarning informatika fanidan zarur kompetensiya va ko'nikmalarni egallashiga imkon beruvchi zamonaviy uslubiy tizimlarni yaratish zarur.

Globalashuv davrining muhim xususiyatlarini o'z ichiga qamrab olgan bu kabi metodlar orqali dars sifati va talaba yoshlarning bilim olishidagi, o'zlashtirishidagi muommalarning yechimi hal etiladi. Ushbu ishdan maqsad maxsus texnologiyalar asosida informatikadan amaliy mashg'ulotlarning metodik tizimini tashkil etish metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Ish vazifalarini quydagicha belgilab olishimiz mumkin:

1. Uslubiy tizim, amaliy ishlab chiqarish va informatika fanini ommaviy axborot ositalari orqali tahlili.

2. Rivojlanish kontseptsiyasi uslubi, tizimli, amaliy, ishlab chiqarish, axborotlarni maxsus jihozlarga asoslangan holda tahlil qilish.

3. Informatika fani uchun mazmun va tuzilmaning tavsifi, uslubiy, tizimli, amaliy, ishlab chiqarish va axborot texnologiyalaridan foydalanishni tashkil etish.

Amaliy sanoat informatikasining uslubiy tizimlarini tashkil etish metodikasi va maxsus texnologik texnologiya asoslari vazifalar va informatikani avtomatlashtirish va interfaol sinflarni yaratish uchun kompyuter dasturlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi, va shu muhitda unumli ish jarayonini tashkil etishi talab qiladi [2].

Uslubiy tizimli amaliy ishlab chiqarish va informatika tushunchasi informatikadan amaliy mashg'ulotlarning uslubiy tizimi kontseptsiyasining asosiy tamoyillarini quyidagilardan iborat deb qarab yoritiladi:

1. Mashg'ulotlarni individuallashtirish. Har bir talaba o'zining tayyorgarlik darajasi va individual ehtiyojlariga mos keladigan topshiriqni oladi. Olingan topshiriqlar bo'yicha ilmiy va ommaviy izlanishlar olib boradi.

2. Talabalarning o'quv jarayonidagi faolligi. Talabalar qaror qabul qilishda, o'z loyihalarini yaratishda va kompyuter dasturlaridan foydalanishda faol ishtirok etishlari kerak. Bu esa axborot texnologiyalarining o'quv jarayonidagi faolligi bilan bir qatorda dasturiy vositalar bilan ishlash va foydalanishdagi kamchiliklardan bir qancha yiroqlashishga sabab bo'ladi.

3. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. Amaliy, kasbiy va axborot usullarini tashkil qilish uchun kompyuter dasturlari, interaktiv texnologiyalar va onlayn kurslar qo'llaniladi. Shunday ekan zamonaviy texnologiyalardan informatika fanini o'qitish va amaliy ishlar olib borish uchun ayni damda manashu raqamli texnologiyalarning va olib borilayotgan metod va usullarni o'rni beqiyosdir.

4. Talabalarning tanqidiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. Bugungi kunda eng dolzarb bolgan bu masala, tanqidiy fikrlash hisoblanib informatika fani amaliy jihatdan o'rganayotgan har bir talaba internet va axborot texnologiyalaridan foydalanoyganda, albatta, oliyotgan yoki foydalanish uchun taqdim etilgan ma'lumotlar qay darajada to'g'riligi haqida fikr muloha qilishga undaydi.

Umumiy qoidalar Informatika fanidan pedagogik amaliyot informatikadan uslubiy jihatdan malakali o'qituvchini tayyorlashda asosiy bo'g'in hisoblanadi. U oliy o'quv yurtida pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, ijtimoiy va maxsus fanlardan olingan bilimlarni mustahkamlashga va boyitishga imkoniyat yaratadi, yosh o'qituvchilarga informatika fanini o'qitishning o'quv va uslubiy qo'llanmalardan, dasturiy ta'minotdan, kompyuter sinflaridan foydalanish xususiyatlari bilan tanishishga imkon beradi.

Pedagogik amaliyotning asosiy vazifasi: hozirgi zamon informatika fanini o'qituvchisining ko'nikma va malakalarini egallash va sohasi bo'yicha amaliy jihatdan yangiliklar olib kirish hisoblanadi. Pedagogik amaliyotni o'tkazish vaqti o'quv rejasi bilan aniqlanadi. Pedagogik amaliyot darslarini, sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlarni o'tkazish va tayyorlashda talabalar mustaqil ishini amaliy holda kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda faoliyatining doimiy o'sib borish prinsipi asosida olib boriladi [3].

Amaliyotga tayyorlanish jarayonida talabalar:

- informatika fani va informatika dasturidan ta'lim mazmunining majburiy minimumi bilan tanishishlari;

- har bir guruhdagi informatika fanidan barcha adabiyotlarining mavjud materiallarini o'rganishlari;

- informatika fanidan yangi o'quv-uslubiy adabiyotlar, ko'rgazmali qurollar, dasturiy va texnik vositalar bilan tanishishlari; - avvalgi yillarda o'qigan amaliyotchi talabalarning konspektlari, ko'rgazmalari bilan tanishishlari zarur.

Informatika fanidan pedagogik amaliyotning asosiy mazmuni pedagogik amaliyotning birinchi va ikkinchi haftasi kuzatish davri hisoblanib, bu vaqtda talabalar: - maktab bilan tanishishlari, amaliyot o'tkaziladigan sinfni o'rganishlari; - informatika fanidan o'qituvchi foydalanayotgan dasturlarni, darsliklarni, o'quv va ko'rgazmali qurollarni o'rganishlari; - informatika fani kabineti, kompyuter sinfi, dasturiy ta'minot bilan tanishishlari; - informatika fani o'qituvchisining amaliyot o'tkazilayotgan va boshqa sinflardagi darslariga qatnashishlari va tahlil qilishlari; - o'quv-tarbiyaviy ishlarni kalendar-tematik rejalashtirishni tayyorlashi; - dars va sinfdan tashqari tadbirlarning konspektlarini tayyorlashni boshlashlari zarur.

Pedagogik amaliyotning keyingi haftalari talabalarning faol amaliyot davri hisoblanadi va bu davrda talabalar:

- darslarning va sinfdan tashqi tadbirlarning konspektlarini uslubiy va dasturiy ta'minotini yaratgan holda ishlab chiqishi;

- har xil tipdagi informatika fani darslarini xilma-xil usullar va o'qitishning texnik vositalarini qo'llab o'tkazishi, hamda informatika darslarini tahlil qilishi;

- informatika fani o'qituvchisi va boshqa talabalarning darslariga qatnashishi va tahlil qilishi;

- dars jarayonida kompyuterdan foydalanishni istagan fan o'quvchilariga yordam berishi,

- o'quv maqsadlari uchun maktabga zarur bo'lgan dasturiy ta'minotni ishlab chiqishda qatnashishi;

- informatika fani o'qituvchilarining uslubiy birlashmasi ishlarida va boshqa tadbirlarda ishtirok etishlari;

- pedagogik amaliyot hujjatlarini tayyorlashi;

- fakultetdagi pedagogik amaliyotga bag'ishlangan yakuniy anjumanga biror uslubiy mavzu bo'yicha qilinadigan ma'ruzani tayyorlashda qatnashishlari;

- fakultetdagi yakuniy anjumanda ishtirok etishlari zarur.

Informatika fani darslarini tayyorlash, o'tkazish va tahlil qilish har qanday informatika fani darsi bir tomondan butun rivojlanuvchi tizim, boshqa tomondan – o'quv mavzusi va o'quv predmeti bo'yicha asosiy element hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham fan o'qituvchisining ishini butun o'quv tarbiyaviy faoliyatini rivojlantirishga asoslangan. Dastlabki bosqich (tematik rejalashtirish) o'rganilayotgan mavzu bo'yicha dars tizimini qurish bilan bog'liq, keyingi bosqich esa navbatdagi darsni ishlab chiqish bilan bog'liq.

Pedagogik amaliyot jarayonida talabalar informatika fani o'qituvchisining yillik, tematik rejalari va uning dars konspektlari bilan tanishishlari zarur. So'ngra, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, qo'shimcha adabiyotlar, dasturiy ta'minotlar bilan tanishishlari zarur. Bundan keyin o'qituvchi va metodist bilan birgalikda shaxsiy tematik rejasini tuzishi lozim; har bir mavzu bo'yicha dars tizimining umumiy didaktik maqsadini; darslar mavzusini; ularning tiplarini; umumiy o'qitish usullarini; jihozlashlar; dasturiy ta'minotlarni; o'qituvchi va o'quvchi uchun asosiy ma'lumot manbaini ko'rsatishi lozim. Bunday tematik rejalarni tuzish amaliyotchilar uchun ular faoliyatining istiqbolini ochib beradi, materiallarni darslarga taqsimlashni o'rgatadi, o'quv jarayonning bir maromda olib borilishiga yordam beradi, biror masalani o'rganish uchun behuda vaqt sarflamaslikni (boshqa masalaga ajratilgan vaqtga ziyon yetkazmasdan) ogohlantiradi [4].

Pedagogik amaliyotda informatika fanidan sinfdan tashqi tadbirlarni tayyorlash muhim bosqich hisoblanadi. Bunday mashg'ulotlar:

- o'quvchilarning bilimga qiziqishlarini rivojlantirishga;

- informatikani chuqur o'rganishga (fakultativ darslarda);

- fikr doiralarini kengaytirishga; - yangi muloqot aloqalarini o'rganishga (telekommunikasion tarmoqlar orqali); - tashqi texnik vosita va qurilmalardan unumli va samarali foydalanish;

- o'qitishda predmetlararo aloqalarni amalga oshirishga imkon beradi.

Informatika fanidan sinfdan tashqi tadbirni tayyorlashda talabaamaliyotchi:

- uning umumiy didaktik maqsadini ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini hisobga olgan holda aniqlashi;

- uning mazmunini, hajmi va qo'yilgan maqsadga mos qiyinlik darajasini aniqlab, kompyuterda uzluksiz ishlash vaqtini va o'quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda tayyorlashi;

- o'qitish va tarbiyalashning eng samarali metodlarini, maqsadga, mazmunga, o'quvchilar saviyasiga mos holda tanlashi;

- sinfdan tashqi tadbirning maqsadga, mazmunga va o'qitish va tarbiyalash metodlariga mos tuzilishini aniqlash kerak.

Informatikadan sinfdan tashqi tadbirlarga qo'yiladigan muhim talablar:

- uning maqsadga yo'naltirilganligi, mazmunliligi va qulay tuzilishi;

- shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan, asoslangan vosita, o'qitish va tarbiyalash metodlarini tanlash;

- o'quvchilarda axborotlashtirish madaniyatini, bilimga qiziqishlarini vujudga keltirish;

- hisoblash texnikasi kabinetida o'quv jarayonini tashkil qilishning texnik-sanitar-gigiyenik talablariga rioya qilish;

- o'qituvchi va o'quvchining hamkorligi (sinfdan tashqi tadbirni faqat o'tkazishda emas, balki uni tayyorlashda ham)dir; Informatika fani o'qituvchisining funksiyalari;

Informatika fani o'qituvchisining umumiy funksiyalari:

- amaliyotchi talabalarning informasion va uslubiy madaniyatini rivojlanishiga oliy o'quv yurtida informatika va pedagogik fanlaridan olgan bilimlarining boyishiga yordam berish;

- birlashtirilgan amaliyotchi talabalarining ish mazmunini aniqlashtirish (o'qituvchi talabalar o'rtasida dars mavzularini va fandan sinfdan tashqari tadbirlarni belgilaydi va taqsimlaydi, qoloq o'quvchilar bilan mashg'ulot o'tkazishni, to'garak mashg'ulotlarini, daftarlarni tekshirishni, o'qitishga mo'ljallangan dasturiy vositalarni tayyorlashni va h.k. topshiradi);

- amaliyotchi talabalarga kalendar-tematik ish rejasini tuzish, rejani tasdiqlash, uning bajarilishini nazorat qilish; -

amaliyotchi talabalarga dars o'tishlari uchun tayyorlanishlari uchun yordam berish, navbatdagi darslari konspekt-rejalarini ko'rib chiqish va tasdiqlash;

- amaliyotchi talabalarning har bir darsini tahlil qilish va baholash; - amaliyotchi talabalarning amaliyotga qatnashishi va o'z vazifasiga munosabatini nazorat qilish, kamchiliklar haqida o'z vaqtida amaliyot rahbariga axborot yetkazish;

- amaliyotchi talabalarga informatika o'qituvchisi sifatidagi ishlariga dastlabki bahoni qo'yish;

- ta'lim muassasasi tomonidan o'tkaziladigan pedagogik amaliyotga bag'ishlangan yig'ilishda qatnashish [5].

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda, informatika fanidagi amaliy darslarni tashkil etishdagi metodik tizim maxsus texnologiyalari o'quv jarayonini yanada samarali, qiziqarli va ko'p yo'l bilan o'rganishga imkon beradi. Bu texnologiyalar orqali, informatika fanidan qiziqish ko'rsatayotgan barcha o'quvchilar o'sha maydonni yanada rivojlantirish uchun shunchaki juda ajoyib texnologiyalardir. Talabalarning amaliy ishlab chiqarish-axborot va maxsus texnologik tayyorgarligining samarali uslubiy tizimini ishlab chiqish, fan sohasini tahlil qilish, optimal texnologiyani tanlash, uslubiy qo'llanmani ishlab chiqish, amaliy ishlab chiqarishni tashkil etish va o'quv natijalarini monitoring qilish. Muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun talabalarning zaruriy tayyorgarlik darajasidan foydalanish, shuningdek, o'qitishning innovatsion usullaridan foydalanish kerak.

IQTIBOSLAR/СНОСКИ/REFERENCES

1. Amridinov S.A., Suyarshayev M.M. Pedagogiy amaliyotga tavsiyalar. – Samarqand: SamDU nashri, 2009. – 24 b.
2. Mamatov Sh.S. Matematika va informatika o‘qitish metodikasi. O‘quv- uslubiy majmua. – Samarqand: SamDU, 2013. - 400 b.
3. Haydarova O. Bo‘lajak o‘qituvchilarni ta’lim jarayoniga texnologik yondashuvga tayyorlash. Ped.fan.nom. Dissertatsiya.-Qarshi: 2004.-159b.
4. Isoqov I., Qulmamatov S.I. Informatika o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalar. O‘quv-uslubiy majmua. Guliston, 2014 y.
5. Isoqov I., Informatika o‘qitish texnologiyalari va loyihalashtirish fanidan maruza matnlari. Guliston, 2017 y.

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 5-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-I, НОМЕР-5

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-I, ISSUE-5

«Тадқиқот ва инновациялар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz